MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, V-QISM



Milliy nashrlar


OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE.

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TAS STOKHOLM UNIVERSITETI

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К INDUSTRY 5.0 9
Нигмонходжаев А. А.
ИНТЕГРАЛЬНЫЙ ИНДЕКС КАЧЕСТВА АКТИВОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С УЧЁТОМ СТАДИЙ МСФО (IFRS) 9 И КЛАССИФИКАЦИОННОГО РАЗРЫВА 15
Ю Вей
O‘ZBEKISTONNING 2026-YIL I YARIM YILLIGIDA ORGANIK SERTIFIKAT TALAB QILUVCHI MAMLAKATLARGA MEVA-SABZAVOT EKSPORTI 21
Shavqidinova Dilnavoz
INTERNATIONAL EXPERIENCE IN FINANCING FIXED CAPITAL INVESTMENT 26
Hasanova Nargiza Okilovna
THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF STATE PROGRAMS IN FINANCING FIXED CAPITAL INVESTMENT 34
Innaminova Naubakhar Sansizbayevna
SANOAT VA QURILISH TARMOQLARINING O‘ZARO INTEGRATSIYASI ASOSIDA HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 41
Jo‘rayev Bobomurod Abdimuminovich
O‘ZBEKISTONDA JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA 8-SON MHXSNI QO‘LLASHNING USLUBIY MASALALARI 49
U. A. Shirinov
MINTAQALARDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI 55
Ko‘paysinov Behruz Xurshid o‘g‘li
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI QAMROV VA MULKCHILIKNING EKONOMETRIK TAHLILI 60
Shamsiyeva Yulduz Olimovna
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KONSALTING KOMPANIYALARIDA “SMART” BOSHQARUV TIZMLARINI JORIY ETISH MEXANIZIMLARI 65
Ermamatova Shohsanam Ermamat qizi
O‘ZBEKISTONDA TURISTIK OQIMNING HUDUDIY IQTISODIY NATIJALARGA TA’SIRINI BAHOLASH VA MAHALLIY DAROMADLAR HAMDA IQTISODIY MANFAATLAR TAHLILI 71
Mehrojbonu Ochilova
ИНТЕГРАЛЬНЫЙ ЦИФРОВОЙ ПОКАЗАТЕЛЬ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ: МЕТОДИКА РАСЧЁТА И РИСК-КЛАССИФИКАЦИЯ ЗАЁМЩИКОВ 77
Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна
DAVLAT ISHTIROKIDAGI TRANSPORT KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGINING INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA’SIRINI BAHOLASH 84
Raxmatov Ziyodullo Nosirovich
INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINI JORIY ETISH ASOSIDA TRANSPORT XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH 92
Kenjayeva Shaxnoza Muratovna
ISSIQLIK ALMASHINUVI QURILMALARINING GEOMETRIK SHAKLLARINI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ASOSIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH 96
Yo‘ldashev Solmonjon Iqboljon o‘g‘li
SUG‘URTA MUKOFOTI VA YILLIK TARIF KOEFFITSIYENTINI BASHORAT QILISHDA MASHINAVIY O‘QITISH ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI 102
Abdullayeva Umida Nurmuxammad qizi
МОДЕЛИРОВАНИЕ ФАКТОРОВ ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА МАЛЫХ ПАНЕЛЯХ ПРЕДПРИЯТИЙ ХОЛДИНГА: TOBIT-РЕГРЕССИЯ И БУТСТРЭП-ПРОВЕРКА ПО АЛГОРИТМУ СИМАРА — УИЛСОНА 111
Курбонова Маъмура Абдукари қизи

REAL VAQT REJIMIDAGI VIDEOKUZATUV TIZIMLARIDA OBYEKTLARNI ANIQLASH VA TANISHNING NEYRON TARMOQ USULLARI 119
Xolmatov Azizbek Tolibjonovich
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH: HOLAT, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR 123
Giyayev Rustamjon Abdurasulovich
МЕХАНИЗМ ИЗОЛЯЦИИ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОРТФЕЛЯ СТРАХОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ОТ ЛОКАЛЬНЫХ ШОКОВ 128
Камилова Севара Анваровна
РЕГУЛЯТОРНЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ОПЕРАЦИОННЫМИ РИСКАМИ АГЕНТНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЗБЕКИСТАНЕ 137
Сагдуллаев Шукурулло Комил угли
O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI 142
Qorriyeva Shohnoza Saparboyevna
ФИЗИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЛЬТРАЗВУКОВОЙ ЗАТОЧКИ СПИРАЛЬНЫХ СВЁРЛ: МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЖУЩЕЙ КРОМКИ И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ РАБОТОСПОСОБНОСТИ ОСЕВОГО ИНСТРУМЕНТА 150
Желтухин Андрей Владимирович, Сирожидинов Шамилидин Икромжонович
МЕТОДИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТАРИЙ ДИАГНОСТИКИ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА МАЛОГО ПРЕДПРИЯТИЯ: ИНДЕКС EPI И СПЕЦИФИКАЦИЯ ФАКТОРНОЙ МОДЕЛИ 159
Насридинова Шохида Тауфиковна
VOLFRAM TARKIBLI RUDALARNING DASTLABKI MINERALOGIK TARKIBI VA ZARRALAR O'LCHAMINING BOYITISH JARAYONLARINI TADQIQ ETISHDAGI AHAMIYATI 165
Xasanov Adham, Xasanov Abdirashid, Tolibov Behzod, Boymurodov Najmiddin
DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXIGA OID HISOB SIYOSATINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 171
Djumanov Saitmurod Alibekovich
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 175
Boboqulov Akmal Muborakbekovich
AKT SOHASI AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QARZ MAJBURIYATLARINI IFRS 9 BO'YICHA KEYINGI BAHOLASH: SAMARALI STAVKA, MODIFIKATSIYA VA VALYUTA POZITSIYASI 180
Shanasirova Nodira Abdullayevna
ASSESSING THE IMPACT OF CULTURAL EVENTS AND TOURISM ACTIVITIES ON A COUNTRY'S INTERNATIONAL IMAGE: PORTFOLIO CONCENTRATION THRESHOLDS, ATTENTION CONVERSION EFFICIENCY, AND CORRIDOR EMBEDDEDNESS IN UZBEKISTAN'S EVENT SYSTEM 186
Gofurjonova Musharrafkhon Shekhratjon kizi
MODA MAHSULOTLARINI RAQAMLI BOZORLARDA ILGARI SURISHDA NARXGA SEZGIRLIK VA CHEGIRMA STRATEGIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH 197
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI PROGNOZLASH VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH 205
Nozimov Eldor, Nematullayev Shohjahon
INTERNATIONAL INTEGRATION OF UZBEKISTAN'S NATIONAL QUAL-ITY INFRASTRUCTURE IN 2023-2025: INSTITUTIONAL MECHANISMS AND PERFORMANCE ASSESSMENT SYSTEM 211
Orifboev Abdullakhon Asadullo ugli
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING INVESTITSION SALOHIYATINI EKONOMETRIK BAHOLASH 217
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna
СТРУКТУРА, УРОВЕНЬ И ПРАКТИКА ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНЫХ РИСКОВ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА 225
Назаров Баходир Бахтияр угли REAL SEKTOR KORXONALARINI KREDITLASHDA KREDIT REAL

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

SEKTOR KORXONALARINI KREDITLASHDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH 232
Anvarov Nozimjon Maxsudbek o‘g‘li
ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ, СТРУКТУРА КОЕЧНОГО ФОНДА И ДОСТУПНОСТЬ ПОМОЩИ КАК ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЫНКА МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ 236
Йулдошев Бекзод Алишерович
O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA’MINLASHNING MILLIY XUSUSIYATLARI 244
Masaidova Marg‘uba Muratovna
AKTIVLAR SIFATINING TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY NATIJALARIGA TA’SIRI 251
Absamatov Asqar Ergashovich
QURILISH-PUDRAT ISHLARINING MAXSUS JIHATLARINI AUDIT QILISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH 262
Tulovov Erkinjon To‘lqin o‘g‘li
SANOAT KOOPERATSIYASI SHAROITIDA TEMIR YO‘L MASHINASOZLIGI KORXONALARINING IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV MEXANIZMLARI 265
Yuldasheva S.A

SANOAT KOOPERATSIYASI SHAROITIDA TEMIR YO‘L MASHINASOZLIGI KORXONALARINING IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV MEXANIZMLARI

Yuldasheva S.A
Toshkent davlat transport universiteti professori, PhD.
E-mail: yuldashevasaodat64@gmail.com
ORCID: 0000-0002-7487-5622

Annotatsiya. Maqolada sanoat kooperatsiyasi sharoitida temir yo‘l mashinasozligi korxonalarining iqtisodiy integratsiyalashuv mexanizmlari tadqiq etilgan. Integratsiyaning vertikal, gorizontal, shartnomaviy va mulkiy shakllari nazariy jihatdan tizimlashtirilib, O‘zbekiston amaliyotidagi mexanizmlar - xolding ichki integratsiyasi, tarmoqlararo memorandumlar, ishonchli boshqaruv va xususiylashtirish hamda xorijiy kompaniyalar bilan texnologik alyanslar tipologiyasi ishlab chiqilgan. Mexanizmlar mulkiy integratsiya darajasi va texnologik o‘rganish salohiyati bo‘yicha pozitsiyalashtirilgan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash vositalarining integratsiyaga ta’siri baholangan hamda integratsiya shaklini tanlash va uning sof iqtisodiy samarasini aniqlashga doir yondashuv taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy integratsiya, vertikal integratsiya, sanoat kooperatsiyasi, temir yo‘l mashinasozligi, qo‘shma korxona, ishonchli boshqaruv, texnologiya transferi.

Аннотация. В статье исследованы механизмы экономической интеграции предприятий железнодорожного машиностроения в условиях промышленной кооперации. Теоретически систематизированы вертикальная, горизонтальная, договорная и имущественная формы интеграции, разработана типология механизмов, применяемых в практике Узбекистана: внутрихолдинговая интеграция, межотраслевые меморандумы, доверительное управление и приватизация, а также технологические альянсы с зарубежными компаниями. Механизмы позиционированы по степени имущественной интеграции и потенциалу технологического обучения, оценено влияние инструментов государственной поддержки на интеграцию, предложен подход к выбору формы интеграции и определению её чистого экономического эффекта.

Ключевые слова: экономическая интеграция, вертикальная интеграция, промышленная кооперация, железнодорожное машиностроение, совместное предприятие, доверительное управление, трансфер технологий.

Abstract. This article examines the mechanisms of economic integration among railway engineering enterprises in the context of industrial cooperation. Vertical, horizontal, contractual, and ownership-based forms of integration are theoretically systematized, and a typology of mechanisms employed in Uzbekistan is developed, encompassing intra-holding integration, intersectoral memoranda, trust management and privatization, and technological alliances with foreign companies. These mechanisms are positioned according to their degree of ownership integration and technological learning potential. The influence of government support instruments on integration is assessed, and an approach to selecting an integration form and determining its net economic effect is proposed.

Keywords: economic integration, vertical integration, industrial cooperation, railway engineering, joint venture, trust management, technology transfer.

KIRISH

Temir yo‘l mashinasozligi — yuqori texnologik talablar, uzoq ishlab chiqarish sikli va katta kapital sig‘imi bilan ajralib turuvchi tarmoq. Bunday sharoitda alohida korxonaning raqobatbardoshligi uning boshqa ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar va texnologiya egalari bilan qanchalik chuqur integratsiyalashganiga bog‘liq. O‘zbekistonda harakatlanuvchi tarkibni yangilash ko‘lami bu masalani dolzarb qilmoqda: 10 ming dona yuk vagonini qurish, 6 mingdan ortig‘ini tiklash, 250 ta zamonaviy yo‘lovchi vagonini ishlab chiqarish hamda Xitoydan 88 ta lokomotiv xarid qilish rejalashtirilgan [1]. Holbuki, ixtisoslashgan ikki yuk vagonsozlik korxonasining umumiy quvvati yiliga 1000–1500 dona deb baholanadi [2].

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [3] va PQ-99-son qaror [4] sanoatda qo‘shilgan qiymat zanjirlarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. 2026-yil 6-fevraldagi Farmonda esa yirik korxonalarning

ishlab chiqarish zanjirlariga kichik va o‘rta biznesni keng jalb qilish hamda mahalliy ishlab chiqarishning global yetkazib berish zanjirlariga integratsiyalashuvini ta’minlash maqsad qilib qo‘yilgan [5]. “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonun [6] va “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun [7] sohaga xususiy kapital va davlat-xususiy sheriklik[1] mexanizmlarini jalb etishning huquqiy asosini yaratdi.

Biroq amaliyotda integratsiya shakllari tasodifiy, ko‘pincha bitta loyiha doirasida tanlanmoqda; ularni tanlash mezonlari va iqtisodiy samarasini baholash uslubiyati ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot maqsadi — sanoat kooperatsiyasi sharoitida temir yo‘l mashinasozligi korxonalarining iqtisodiy integratsiyalashuv mexanizmlarini tizimlashtirish va integratsiya shaklini tanlashning ilmiy asoslangan yondashuvini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Iqtisodiy integratsiya” tushunchasi dastlab davlatlararo darajada B. Balassa tomonidan bosqichma-bosqich jarayon sifatida tavsiflangan [8]. Korxonalar darajasida esa u ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirish usulini tanlash bilan bog‘liq[2]. O. Williamson bozor va ierarxiya o‘rtasidagi tanlovni tranzaksion xarajatlar orqali izohlab, aktivlar spetsifikligi va noaniqlik yuqori bo‘lganda vertikal integratsiya afzal ekanini ko‘rsatgan [9]. S. Grossman va O. Hart integratsiyaning mohiyatini qoldiq nazorat huquqlari[3] taqsimoti bilan bog‘lagan [10]. K. Harrigan esa integratsiyaning to‘liq, qisman (taper) va kvasi-integratsiya kabi darajalarini ajratib, ularni tarmoq barqarorligi va talab noaniqligiga moslash zarurligini asoslagan [11].

W. Powell tarmoq shaklidagi tashkil etishni “na bozor, na ierarxiya” bo‘lgan mustaqil muvofiqlashtirish usuli sifatida ta’riflagan [12], R. Gulati esa strategik alyanslar va tarmoqlar korxonalarga resurs va axborotga kirish imkonini berishini ko‘rsatgan [13]. B. Kogut [14] va J.-F. Hennart [15] qo‘shma korxonalarni yashirin (yozilmagan) bilimlarni uzatish va tranzaksion xarajatlarni kamaytirish vositasi sifatida tahlil qilgan. D. Teece innovatsiya foydasining kimga tegishi qo‘shimcha aktivlarga — ishlab chiqarish, servis va sotish infratuzilmasiga — egalik bilan belgilanishini isbotlagan [16]. J. Humphrey va H. Schmitz global qiymat zanjiriga qo‘shilish usuli mahalliy korxonalarning texnologik yuksalish imkoniyatlarini belgilashini ko‘rsatgan [17].

Rus iqtisodiy maktabida G.B. Kleyner korxonani mezoiqtisodiy tizimlar tarkibidagi subyekt sifatida o‘rganib, integratsiyalashgan tuzilmalarni strategik barqarorlik omili deb hisoblagan [18]. M.A. Miller vertikal integratsiyalashgan tuzilmalar mintaqaviy sanoatda kooperatsion zanjirlarni shakllantiruvchi markaz vazifasini bajarishini aniqlagan [19]. Mahalliy tadqiqotlarda B.B. Mullabayev yengil sanoatni vertikal integratsiya asosida rivojlantirish tajribasini [20], A.A. Zoxidov transport tizimini boshqarish mexanizmlarini [21], F.S. Saidmurodov esa temir yo‘l sohasida DXSH va ta’mirlash quvvatlari bozorini shakllantirish zaruratini [22] asoslagan. Ammo temir yo‘l mashinasozligi korxonalarining integratsiya mexanizmlari kompleks tarzda o‘rganilmagan. Integratsiya shakllari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.
Temir yo‘l mashinasozligi korxonalari iqtisodiy integratsiyasining shakllari[4]

Integratsiya shakli	Muvofiqlashtirish vositasi	Nazariy asos	Tarmoqdagi ko‘rinishi
To‘liq vertikal (xolding)	Mulk va ma’muriy boshqaruv	O. Williamson; S. Grossman, O. Hart	Vagonsozlik zavodlarining O‘TY tarkibida bo‘lishi
Kvazi-integratsiya	Uzoq muddatli va kafolatli xarid shartnomalari	K. Harrigan	Butlovchilar yetkazib berish bo‘yicha ko‘p yillik shartnomalar
Tarmoq (klaster)	Ishonch, memorandum, umumiy dasturlar	W. Powell; R. Gulati	Metallurgiya, quyuv va vagonsozlik korxonalarining qo‘shma loyihalari
Qo‘shma korxona, alyans	Ulushli ishtirok, litsenziya, texnologiya transferi	B. Kogut; J.-F. Hennart; D. Teece	Xorijiy ishlab chiqaruvchi bilan mahalliylashtirish va servis loyihalari
Ishonchli boshqaruv, DXSH	Boshqaruv huquqini shartnoma asosida berish	S. Grossman, O. Hart	Davlat ulushini strategik investor boshqaruviga berish

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda institutsional tahlil, keys-stadi (amaliy holatlar) usuli, qiyosiy tahlil, reja va ijroni taqqoslash hamda ekspert baholash usullari qo‘llanildi. Amaliy holatlar sifatida 2023–2026-yillarda amalga oshirilgan oltita

1 Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) — davlat sherigi va xususiy sherikning resurslarni birlashtirish, risklar va daromadlarni taqsimlash asosidagi uzoq muddatli huquqiy hamkorligi.
2 Korxonalar integratsiyasi — mustaqil xo‘jalik subyektlari faoliyatini mulkiy, shartnomaviy yoki tashkiliy aloqalar orqali yagona maqsadga bo‘ysundirish jarayoni.
3 Qoldiq nazorat huquqlari — shartnomada oldindan belgilanmagan vaziyatlarda aktivdan foydalanish to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqi (Grossman va Hart, 1986).
4 Manba: 1-jadvalda keltirilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.

integratsiya loyihasi tanlab olindi. Har bir mexanizm ikki o‘q bo‘yicha 1–5 ballik shkalada baholandi: mulkiy va boshqaruv integratsiyasi darajasi (ulushli ishtirok, boshqaruv huquqlari, shartnoma muddati) hamda texnologik o‘rganish salohiyati (texnologiya transferi, kadrlar tayyorlash, mahalliy ishlab chiqarish ko‘lami). Axborot bazasini qonun hujjatlari, O‘TY faoliyatiga oid rasmiy axborotlar va xalqaro tahliliy manbalar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Integratsiya mexanizmlari tipologiyasi. Tahlil O‘zbekiston temir yo‘l mashinasozligida integratsiyaning beshta mexanizmi shakllanganini ko‘rsatdi.

Birinchidan, xolding ichki vertikal integratsiya: Toshkent quyuv-mexanika va Andijon mexanika zavodlari O‘TY tarkibida faoliyat yuritadi [2]. SHu doirada 2023–2025-yillarda qiymati 105 mln AQSH dollari bo‘lgan loyihada 1590 dona yarim ochiq vagon ishlab chiqarilgan, 2025–2026-yillarga mo‘ljallangan 150 mln dollarlik keyingi bosqichda esa yuk va yo‘lovchi vagonlari qurilishi bilan birga korxonalarni modernizatsiya qilish ko‘zda tutilgan [23].

Ikkinchidan, tarmoqlararo shartnomaviy integratsiya: 2024-yil noyabrdagi sanoat yarmarkasida Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK), O‘TY va Andijon mexanika zavodi o‘rtasida imzolangan memorandum asosida umumiy qiymati 501,76 mlrd so‘m bo‘lgan 115 tonnalik dumpkar vagonlarini ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda; “Navoiyuran” buyurtmasi bo‘yicha esa 45 ta sisterna tayyorlanmoqda [24]. Bu yerda buyurtmachi korxona bir vaqtning o‘zida xomashyo yetkazib beruvchi va yakuniy iste’molchi vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, mulkiy-boshqaruv integratsiyasi: Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta’mirlash zavodi (TYVQTZ) ustav fondidagi 90,02 foizlik davlat ulushi 2025-yil yanvarida ishonchli boshqaruv[5]ga berilgan; PQ-391-son qaror (2025-yil 27-dekabr) bilan shartnoma muddati keyinchalik bosqichma-bosqich xususiylashtirish sharti bilan bir yilga uzaytirilgan [25].

To‘rtinchidan, xalqaro texnologik alyans: O‘TY va Škoda o‘rtasidagi 120 mln yevrolik shartnoma 10 ta elektropoyezd yetkazib berish bilan birga ishlab chiqarishni qisman mahalliylashtirish, texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shma korxona va o‘quv akademiyasini tashkil etishni nazarda tutadi [26]. *Beshinchidan,* muzokara bosqichidagi eksportga yo‘naltirilgan integratsiya: Vengriya investorlari bilan vagonlarni O‘zbekistonda ishlab chiqarib, uchinchi mamlakatlarga eksport qilish imkoniyati muhokama qilinmoqda [27]. Mexanizmlarning qiyosiy pozitsiyasi 1-rasmda ko‘rsatilgan.




1-rasm. Temir yo‘l mashinasozligidagi integratsiya mexanizmlarining pozitsiyalashuvi[6]

5 Ishonchli boshqaruv — mulkdor o‘z mulkini (ulushini) mulk huquqini o‘tkazmasdan, shartnoma asosida boshqa shaxs boshqaruviga berishi.

6 Muallif ishlanmasi (ekspert baholash, 1–5 ball). AMZ — Andijon mexanika zavodi.

Rasmdan ko‘rinadiki, xolding ichki integratsiya yuqori mulkiy nazoratga ega bo‘lsa-da, tashqi texnologiya oqimini ta’minlamaydi; aksincha, xorijiy alyanslar texnologik o‘rganish salohiyati yuqori, ammo mulkiy nazorat qisman hamkorga o‘tadi. Eng muvozanatli holat — “strategik integratsiya” kvadranti bo‘lib, unga mahalliy ishtirokni saqlagan holda texnologiya transferini ta’minlovchi mexanizmlar kiradi.

Reja va ijro tahlili. 2025–2026-yillar bosqichida qurilishi boshlangan 954 dona yuk va 70 dona yo‘lovchi vagonidan 2026-yil fevral holatiga 340 dona sisterna va 45 dona yo‘lovchi vagoni ishlab chiqarilgan [23] (2-rasm).



2-rasm. 2025–2026-yillar bosqichi bo‘yicha vagon ishlab chiqarish rejasi va ijrosi[7]

Yo‘lovchi vagonlari bo‘yicha ijro 64,3 foiz, yuk vagonlari bo‘yicha esa 35,6 foizni tashkil etmoqda. Yuk vagonlari qurilishidagi sustlik aravacha, avtoqo‘shgich va quyma detallar kabi butlovchilar ta’minotining ichki quvvatlar bilan cheklanganini ko‘rsatadi. Bu ichki xolding integratsiyasini tashqi ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar bilan kvasi-integratsiya bilan to‘ldirish zaruratini tasdiqlaydi.

Davlat qo‘llab-quvvatlash instrumentlari. 2026-yil 6-fevraldagi Farmon integratsiya jarayonlarini rag‘batlantiruvchi moliyaviy va institutsional instrumentlar majmuini joriy etdi (2-jadval).

2-jadval.
Integratsiyani rag‘batlantiruvchi davlat instrumentlari va ularning tarmoqqa ta’siri[8]

Instrument	Asosiy parametrlari	Integratsiyaga ta’siri
Imtiyozli kredit (Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish jamg‘armasi)	Xorijiy valyutada 6%, milliy valyutada 12%, 10 yilgacha, bir loyihaga 10 mln dollargacha	Butlovchi yetkazib beruvchilarning quvvat yaratishi
Texnologiya transferi subsidiyasi	Xarajatlarning 30% gacha, 1 mln dollardan ko‘p bo‘lmagan	Litsenziya va alyans shakllarini rag‘batlantirish
Kafolatli xarid shartnomasi	Tavsiya etilgan mahsulotni o‘zlashtirgan subyekt bilan tuziladi	Kvazi-integratsiya, spetsifik investitsiya riskini kamaytirish
Bojxona imtiyozi	O‘xshashi ishlab chiqarilmaydigan xomashyo va butlovchilar 3 yilga boj to‘lovidan ozod	Mahalliylashtirishning dastlabki bosqichini yengillashtirish
Davlat xaridlarida narx preferensiyasi	Mahalliy ishlab chiqaruvchilar soniga qarab 15, 12 yoki 8 foiz	Mahalliy yetkazib beruvchilarning bozorga kirishi
Lotlarga bo‘lish va TCO baholash (2027-yildan)	Xarid texnologik zanjir bo‘yicha lotlarga bo‘linadi; umumiy egalik qiymati hisoblanadi	KOBlarning yirik loyihalar zanjiriga qo‘shilishi

Integratsiya shaklini tanlash va samarasini baholash. Tahlil asosida integratsiya shaklini ikki mezon — aktivlar spetsifikligi (S) va texnologik murakkablik (K) bo‘yicha tanlash taklif etiladi: S va K past bo‘lganda — bozor xaridi; S yuqori, K past bo‘lganda — xolding ichki yoki kvasi-integratsiya; S past, K yuqori bo‘lganda — litsenziya va texnologik alyans; ikkalasi yuqori bo‘lganda — qo‘shma korxona yoki DXSH. Tanlangan shaklning sof iqtisodiy samarasi quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{int} = \Delta TX + \Delta L + \Delta P + R_r - K_k - I / T,$$

7 [23] ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi. Yuk vagonlari ijrosi manbada sisternalar bo‘yicha keltirilgan.
8 [5] asosida muallif ishlanmasi.

bu yerda:

ΔTX — tranzaksion xarajatlar tejami;

ΔL — logistika va zaxira xarajatlari tejami;

ΔP — ishlab chiqarish hajmi oshishidan tannarx tejami;

R_r — relyatsion renta[9] (birgalikdagi innovatsiya natijasi);

K_k — koordinatsiya va nazorat xarajatlari;

I — integratsiya uchun investitsiyalar;

T — loyihaning amal qilish muddati (yil).

$E_{int} > 0$ bo‘lganda tanlangan shakl iqtisodiy jihatdan asoslangan hisoblanadi.

Natijalar D. Teece xulosalari bilan uyg‘un [16]: xalqaro alyanslarda texnologiya egasi qo‘shimcha aktivlarni — servis, ta’mir va o‘qitish infratuzilmasini nazorat qilsa, innovatsiya foydasining asosiy qismi unga tegadi. Shu bois Škoda loyihasida servis qo‘shma korxonasi va akademiya tashkil etilishi [26] mahalliy tomon uchun muhim yutuq hisoblanadi. TYVQTZ misolida Grossman–Hart nazariyasi [10] nuqtayi nazaridan qoldiq nazorat huquqlarining ishonchli boshqaruvchiga o‘tishi mahalliylashtirish majburiyatlarini shartnomada aniq ko‘rsatishni talab etadi. Farmonda yirik investitsiya loyihalarini sanoat kooperatsiyasiga qo‘shgan hissasi va mahalliy kadrlar ulushi bo‘yicha baholash mezonlarining belgilanishi [5] bu muammoni hal etishning institutsional asosidir.

K. Harrigan ta’kidlaganidek [11], talab noaniq bo‘lgan sharoitda to‘liq vertikal integratsiya korxonani ortiqcha quvvatlar riskiga duchor qiladi. Harakatlanuvchi tarkibga talab davlat dasturlari bilan bog‘liq va siklik bo‘lgani uchun “qisman integratsiya” — asosiy texnologik operatsiyalarni xolding ichida saqlab, standart butlovchilarni kafolatli shartnomalar orqali tashqaridan xarid qilish maqbul strategiya hisoblanadi. Tadqiqot cheklovi — ekspert baholashning subyektivligi va korxonalar kesimidagi xarajatlar ma’lumotlarining ochiq emasligi; sof samara formulasi keyingi tadqiqotlarda aniq loyihalar ma’lumotlari asosida aprobatsiya qilinishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Temir yo‘l mashinasozligida iqtisodiy integratsiya bozor va ierarxiya o‘rtasidagi keng spektrda — kvasi-integratsiyadan qo‘shma korxonagacha amalga oshadi; shaklni tanlash aktivlar spetsifikligi va texnologik murakkablikka bog‘liq.

2. O‘zbekistonda beshta integratsiya mexanizmi shakllangan: xolding ichki, tarmoqlararo shartnomaviy, mulkiy-boshqaruv, xalqaro texnologik va eksportga yo‘naltirilgan integratsiya.

3. 2025–2026-yillar bosqichida yuk vagonlari bo‘yicha ijroning 35,6 foizda qolayotgani butlovchilar ta’minotini kvasi-integratsiya orqali kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

4. Ishonchli boshqaruv va xususiylashtirish shartnomalariga mahalliylashtirish darajasi, mahalliy kadrlar ulushi va texnologiya transferi bo‘yicha majburiy ko‘rsatkichlarni kiritish tavsiya etiladi.

5. Integratsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirishda taklif etilgan sof samara ko‘rsatkichidan (E_int) foydalanish Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larining samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Spot.uz. O‘zbekiston Xitoydan 88 ta lokomotiv xarid qiladi hamda 250 ta yo‘lovchi vagonini quradi [Elektron resurs]. — 2025. — 13-noyabr. — URL: https://www.spot.uz/oz/2025/11/13/new-trains/
2. ROLLINGSTOCK Agency. Uzbekistan unveils five-year rolling stock renewal plan [Elektron resurs]. — 2025. — 18 November. — URL: https://rollingstockworld.com/locomotives/uzbekistan-unveils-five-year-rolling-stock-renewal-plan/
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-99-son qarori. https://president.uz/oz/lists/view/4938
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 6-fevraldagi Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida PF-17-son farmoni. https://president.uz/oz/lists/view/8927
5. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi Temir yo‘l transporti to‘g‘risida O‘RQ-1006-son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-7239390?ONDATE=01.01.2025
6. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida O‘RQ-537-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-4329270
7. Balassa B. The Theory of Economic Integration. — Richard D. Irwin, 1961.
8. Williamson O. E. Markets and Hierarchies: Analysis and Antitrust Implications. — Free Press, 1975.
9. Grossman S. J., Hart O. D. The costs and benefits of ownership: A theory of vertical and lateral integration // Journal of Political Economy. — 1986. — Vol. 94, No. 4. — P. 691–719. — DOI: 10.1086/261404.

9 Relyatsion renta — hamkorlarning birgalikdagi spetsifik investitsiyalari natijasida yuzaga keladigan, ularning har biri alohida erisha olmaydigan qo‘shimcha foyda.

10. Harrigan K. R. Vertical integration and corporate strategy // Academy of Management Journal. — 1985. — Vol. 28, No. 2. — P. 397–425. — DOI: 10.5465/256208.
11. Powell W. W. Neither market nor hierarchy: Network forms of organization // Research in Organizational Behavior. — 1990. — Vol. 12. — P. 295–336.
12. Gulati R. Alliances and networks // Strategic Management Journal. — 1998. — Vol. 19, No. 4. — P. 293–317.
13. Kogut B. Joint ventures: Theoretical and empirical perspectives // Strategic Management Journal. — 1988. — Vol. 9, No. 4. — P. 319–332. — DOI: 10.1002/smj.4250090403.
14. Hennart J.-F. A transaction costs theory of equity joint ventures // Strategic Management Journal. — 1988. — Vol. 9, No. 4. — P. 361–374. — DOI: 10.1002/smj.4250090406.
15. Teece D. J. Profiting from technological innovation: Implications for integration, collaboration, licensing and public policy // Research Policy. — 1986. — Vol. 15, No. 6. — P. 285–305. — DOI: 10.1016/0048-7333(86)90027-2.
16. Humphrey J., Schmitz H. How does insertion in global value chains affect upgrading in industrial clusters? // Regional Studies. — 2002. — Vol. 36, No. 9. — P. 1017–1027. — DOI: 10.1080/0034340022000022198.
17. Клейнер Г. Б. Стратегия предприятия. — Дело, 2008.
18. Miller M. A. Vertically integrated structures for the formation of cooperative relations in the Omsk region's industry // Russian Journal of Social Sciences and Humanities. — 2024. — Vol. 18, No. 4. — P. 226–234. — DOI: 10.57015/issn1998-5320.2024.18.4.21.
19. Mullabaev B. B. Development of light industry branches in Uzbekistan based on vertical integration // Bulletin of Science and Practice. — 2017. — No. 10. — P. 178–184.
20. Zoxidov A. A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2018.
21. Saidmurodov F. S. Temir yo'l transport tizimini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi. — 2024. — T. 4, № 11. — B. 579–590.
22. Spot.uz. O'zbekistonda 2026-yili jami 954 dona yuk va 70 dona yo'lovchi vagoni ishlab chiqariladi [Elektron resurs]. — 2026. — 25-fevral. — URL: https://www.spot.uz/oz/2026/02/25/wagon-production/
23. Spot.uz. O'zbekistonda 115 tonnalik og'ir yuk tashuvchi vagonlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi [Elektron resurs]. — 2025. — 28-iyul. — URL: https://www.spot.uz/oz/2025/07/28/railway-cargo/
24. Spot.uz. Toshkent yo'lovchi vagonlarini qurish va ta'mirlash zavodi xususiylashtiriladi [Elektron resurs]. — 2026. — 6-yanvar. — URL: https://www.spot.uz/oz/2026/01/06/wagons-russia/
25. Spot.uz. Chexiya Škoda elektropoyezdlarini O'zbekistonga 2027-yilda yetkazib beradi [Elektron resurs]. — 2026. — 4-may. — URL: https://www.spot.uz/oz/2026/05/04/skoda/
26. Spot.uz. O'zbekiston va Vengriya vagonsozlik sohasida birgalikda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi [Elektron resurs]. — 2025. — 22-may. — URL: https://www.spot.uz/oz/2025/05/22/hungary-transport/

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100